



## ALLOH QAYERDA? YOXUD BU SAVOL JAVOBIDAGI NOTO'G'RI TUSHUNCHALAR

**Raymberdiyev Ahad Shuxratovich**

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi

2 bosqich magistranti.

tel.: +998907134149;

e-mail: abdulahadrahimberdi@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972791>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-May 2023 yil

Ma'qullandi: 23-May 2023 yil

Nashr qilindi: 26-May 2023 yil

### KEY WORDS

*Arsh, xoliq, mutashobih, istivo, joriya hadisi, ahli sunna val jamoa, mazhab.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Alloh taologa makon sobit qiluvchi toifalarning iddaolari va ularga munosib javob o'z aksini topgan. Zero, bu masala ulamolar orasida yechiladigan masalalardan hisoblansada, qalbida toyilish bo'lgan kimsalar fitna chiqarish uchun ushbu masalani ko'tarib chiqmoqdalar. Shu sabab, Ahli sunna val jamoa e'tiqodi bu borada qanday yo'l tutish kerak ekanligi, salafi solihlar tutgan yo'l, bugun bu masala borasida hanafiy mazhabi qanday bo'lishi kerakligi, qisqacha bayon qilingan. O'zbekistondagi juda ko'p insonlar muhtoj bo'lib turgan masalalarga tarafkashlikdan holi va omonat o'laroq yechim berilgan*

Bugun jamiyatda juda ko'p bahsga sabab bo'layotgan masalalardan biri Alloh taologa "makon" sifatini berishdir. Aslida Alloh taolo bu masala haqida fikr yuritinglar demagan bo'lsada, ba'zi kishilar shu bahs bilan o'ralashib qolgan. Shu sabab ushbu masalani to'raligicha, to'g'ri va haqqoniy yoritib berish maqsad qilindi. Imom Abu Hanifa (r.a) o'zlarining "Alvasiyat" larida shunday deydilar: "Alloh taolo Arsh ustiga uni makon tutmasdan, unga hojati tushmasdan istivo qilganligiga iqro'miz. Alloh taolo Arshni ham, Arshdan boshqasini ham biror bir hojatsiz muhofaza qiladi. Agar Alloh hojatmand bo'lganida edi, o'zi yaratgan narsalari kabi olamni yaratishga uni tadbirini bajarishga qodir bo'lmasdi. Agar Alloh o'tirish va biror joyda qaror topishga muhtoj bo'lsa, Arshni yaratganidan oldin qayerda edi? Alloh bunday narsalardan oliy va buyuk zotdir" [1:87]. Agar mantiqan fikrlaydigan bo'linsa, Alloh taolodan boshqa hamma narsa muhdasdir (yaratilgandir). Sababi, hamma maxluqda o'zgarish sifati bor. Ya'ni, holat va vaziyatlarda o'zgaradi. Har bir o'zgaruvchi esa muhdasdir, ya'ni keyinchalik paydo bo'lgan narsadir. Shunday ekan yaratuvchi zot biror makonda joylashishi amri mahol ishdur.

Mushabbiha, mujassima, karromiyalar va ularning bugungi kundagi izdoshlari Alloh taolo Arshda makon olgan deyishadi. O'zlariga dalil qilib Alloh taoloning  
الرَّحْمَنُ  
عَلَى الْعَرْشِ اسْتَوَى

(Rohman Arsh ustiga istivo qildi) oyatini hujjat qilishadi.

Alloh taolo osmonda deydiganlar quyidagi oyatni dalil qilishadi:

ءَاْمِنْتُمْ مَّنْ فِي السَّمَاءِ اَنْ يَّخْسِفَ بِكُمْ اَلْاَرْضَ فَاِذَا هِيَ تَمُورُ

(Osmondagi zot sizlarni iztirobda harakatlanib turgan yerga yuttirib yuborishidan omonda bo'ldingizmi?), shu bilan birga Imom Muslim rivoyat qilgan joriya hadisni dalil qilishadi: Imom Muslim Muoviya ibn al-Hakam as-Sulamiy (r.a) rivoyat qiladi: "U Rasululloh (s.a.v) dan o'z joriyalari haqida so'rab: Ey Allohning Rasuli uni ozod qilaymi?, dedim, dedilar. U zot: "Uni (huzurimga) olib kel", dedilar. Bas, uni u zotga olib keldim. U zot unga qarata: "Alloh qayerda?" dedilar. U: Osmonda dedi. U zot: "Men kimman?" dedilar. U: "Siz Allohning rasulisiz", dedi. U zot: "Uni ozod qil, u mo'minadir", dedilar"[2:33]. Keltirilgan oyat va hadislar ularning hujjat va dalillarining eng suyangani hisoblandi. O'z navbatida bu oyat va hadislariga ahli sunna val jamoa munosabati qanday? Allohga makon sifatini berish borasida ularning e'tiqodi borasida to'xtalamiz. Avvalo, birinchi oyat tahlil qilinsa:

الرَّحْمَنُ عَلَى الْعَرْشِ اسْتَوَى (Rohman Arsh ustiga istevo qildi). Imom Bobartiy "Bu mutashabih oyatlardan, u bilan qat'iy ishga dalil qilinmaydi", - deydilar. Mutashobih oyatlar borasida salaflarning mazhabi oyatni tasdiqlash va uning ta'vilini Allohga topshirishdir. Chunki banda uni idrok qila olmaydi. Mutashobih oyatlar borasida Xalaflar mazhabi ham qat'iy emas. Chunki, unda oyat turli narsalarni ehtimol qilinadi. Masalan, istivo lafzi tugatish, tamomlash ma'nosida ham keladi. Alloh taolo aytgani kabi

وَلَمَّا بَلَغَ أَشُدَّهُ وَاسْتَوَى

(Qachonki u voyaga yetib, tom mukammal bo'lganda). Egallab olish ma'nosida ham keladi arab she'riyatida kelgani kabi:

قد استوى بشر على العراق

من غير سيف ودم مهراق

Ya'ni Bishr Iroqni qilichsiz qon to'kmasdan egalladi.

O'z navbatida qaror topish, o'rin egallash va joylashish ma'nosida ham keladi. Bu ma'noda Qur'onda ham uchraydi. Masalan:

واستوت على الجودي

(Judiy tog'iga joylashdi). Demak, yuqorida zikr qilingan toifalar istivoning qaror topish, joylashish ma'nosini olib Allohga makon nisbatini berishadi. Ya'ni, Alloh Arshga joylashgan deyishadi. Bu botil e'tiqoddur. Oyat esa shuncha ehtimol bilan qat'iy bir narsaga hujjat bo'lolmaydi. Chunki, fikr bilan sobit bo'lgan har bir mujtahidning ta'vili boshqa mujtahid uchun hujjatlikka yaramaydi. Lekin, bu yerda egallash ma'nosini olish ustun fikrdir. Chunki, Alloh hamma narsani egasi bo'lishligi bilan madh qilinadi. Arablarda istivodan egalik ma'nosi tushunilsa, madh uchun bo'ladi. Alloh taolo hamma narsaning egasi bo'lishiga qaramasdan, faqat Arshni xoslaganligiga keladigan bo'lsak, Arsh maxluqotlarning eng buyugidir. O'z-o'zida Arshga ega bo'lgan zot, butun borliqning ham egasi bo'ladi. Alloh taoloning quyidagi oyatiga kelinadigan bo'lsa

وَأَمِنْتُمْ مَنْ فِي السَّمَاءِ أَنْ يَخْسِفَ بِكُمْ الْأَرْضَ فَإِذَا هِيَ تَمُورُ (Osmondagi zot sizlarni iztirobda harakatlanib turgan yerga yuttirib yuborishidan omonda bo'ldingizmi?) "osmondagi zot"dan murod Alloh taolo, lekin bu gap "Alloh taolo osmonda" degani emas. Chunki, Alloh taolo makonga muhtoj emasdir. U makon va zamondan ustun zotdir. Ahli sunna val jamoa e'tiqodiga binoan, "Alloh taolo yerda yoki osmonda" deyilishiga sabab, uning xohishi va hukmi Yer-u osmonga barobar o'tishi va uning sultoni g'olib ekanidadir[3:213]. Bu oyat ham mutashobih oyatlardandir. Oyatga iymon keltiriladi va ta'vili borasida chuqur kirishilmaydi. Imom Nasafiy bu oyatni hukumronligi samoda bo'lgan zot deb tafsir qilganlar. Chunki, osmon farishtalar maskani bo'lib, Allohning hukumlari, kitoblari, buyruq va qaytariqlari samodan

tushadi. Shunda oyatdagi “samodagi zot” samoning xoliqi va podshohi degandek bo’ladi[4:514]. Ibn Abbos (r.a) “Azobi samoda bo’lgan zot” deb tafsir qilganlar. Ushbu oyatda osmondagi zotdan Alloh iroda qilingan bo’lsada unga makon berish jihatidan emas. Buni keltirilgan dalillar orqli bilib oldik.

“Joriya hadisi”ga kelinadigan bo’lsa, avvalo, hadislarini amal qilmasdan qoldirishga qarshi chiqiladi. Lekin bu yerda nazar qilib ko’rish kerak bo’lgan jihatlar bor. Qurtubiy “Rasululloh (s.a.v) joriyadan “Alloh qayerda?” deb so’rashlari, uning imoniga dalolat qiladigan narsani bilish edi. Sababi, mushriklarning olov va sanamdan iborat ma’budlari yerda joylashgan edi. Mushriklarning har biri hojatini o’z ma’budidan so’rar edi. Samo esa yakka Allohga sig’inuvchilarning duo qilish qiblasini edi. Rasululloh esa uning e’tiqod qiladigan o’rnini bilishni xohladilar. Shu sabab joriya ayol tushunadigan savol bilan yuzlandilar. Joriya ayol esa yakka Allohga sig’inuvchilar duo qiladigan qiblaga ishora qildi”-deydi. Bu bilan Alloh samoda degan e’tiqod shakllanmaydi. Ulamolar bu hadis borasida ushlagan narsalari turlicha bo’lgan. Ba’zi olimlar bu mazmundagi oyat va hadislarini ta’vil qilish kerak deydilar. Salaf ulamolari esa uni ta’vil qilish, zohirini tushunishdan saqlanish kerak. Uning ta’vilini Allohga topshirib bunaqa masalaga kirishmasligimiz kerak deydilar. Bu yerda bizni rozi qiladigan fikr va uni din qilib ushlashimiz kerak bo’lgan yo’l salaf ulamolarining yo’lidir. Shu o’rinda bugun jamiyatimizda shu hadisni zohirini tushunib Alloh osmonda deydiganlar ishi ajablanarli holatdir. Sahobalar va Tobeinlar ta’vil qilishda ikkilangan bu masalada ularga ergashuvchi ummat jur’ati qayerdan keldi. Demak, ularning maqsadi xolis bu haqida ma’lumot hosil qilish emas, balki ilmi kam, tushunchasi ozroq musulmonlar orasiga fitna solish, shu bilan musulmonlarni ikkiga ajratib o’z maqsadlariga erishishdir. Ha albatta bu masala bugun paydo bo’lgan emas, lekin, u olimlar ichidagi masalalardan edi. Bugun esa ayrim fitnakashlar faqat shu mavzudan bahs qilishadigan bo’lishdi. Hatto, Alloh osmonda emas, Allohga makon sifatini berilmaydi deydiganlarni kofir deydigan musulmonlar paydo bo’ldi. O’z-o’zidan shu masala sabab musulmonlar o’rtasida maxfiy bir adovat paydo bo’ldi. Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy: “Mashriqdan tortib to mag’ribgacha bo’lgan joydagi faqihlarning hammasi Allohning biror bir tashbehsiz, tafsilotsiz, tafsir qilinmasdan kelgan sifatleri borasidagi oyat va ishonchli hadislariga imon keltirish kerakligiga ittifoq qilishgan. Kimda kim undan birortasini o’zicha tafsir qiladigan bo’lsa, Rasululloh va u zotning sahobalari yo’lidan chiqibdi. Ahli sunna val jamoadan ajralib qolibdi. Sababi u Allohni yo’q sifat bilan vasf qilibdi”-deganlar. Imom Avzo’iy, imom Molik, Sufyon Savriy, Lays ibn Sa’d, Imom Shofe’iylar ham Allohning sifatleri tafsirsiz keladigan bo’lsa kayfiyatiga kirishmasdan imon keltirish kerak deganlar. Nega shunday? Alloh osmonda makon olgan deydigan bo’linsa nima bo’ladi? Alloh taolo qur’onda aytadi

(لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ)

(Biror narsa uning misli kabi emas). Bu oyat muhkam oyatlardan hisoblandi. Ya’ni, turli ta’vil qilishga muhtoj emas. Nima uchun nozil bo’lgan bo’lsa, o’sha ma’noni ifodalaydi. Demak, aniq muhkam dalil turganda mutashobih oyatlarni qat’iy ishga hujjat qilish to’g’ri emas. Alloh taoloning zoti qolgan zotlarning birortasiga o’xshamaydi. Bu yerda tashbeh mutlaqo inkor qilingan. Shu sabab Allohga biror makonni nisbat berishda maxluqotlarga o’xshatish bor. Alloh taoloning sifatleri boshqa narsalarning sifatlariga o’xshamaydi. Allohning sifatleri uning zotiga munosib sifatlardir. Alloh biror makonga tushishidan pok zotdir. Lekin, tepa, samo qolgan taraflarga nisbatan sharaflari bo’gani uchun Allohni unga nisbat beriladi, zoti

va sifatlari ulug'ligi jihatidan, makon olish jihatidan emas.

Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, Alloh yaratilgan narsalardan birortasiga o'xshamaydi! Maxluqotlardan birortasi Allohga o'xshamaydi! Alloh taoloning zoti biror narsaga o'xshamaganidan keyin, u zotning sifatlari ham maxluqotlar sifatlariga o'xshamaydi. Mana shu Ahli sunna val jamoaning eng sof e'tiqodidir. Bu borada Moturudiylar va Ash'ariylar bir xil fikrdaddirlar. O'zbekistondagi mo'min-musulmonlar ham shunday e'tiqodda ekanligi ustuvordir. Shundan kelib chiqib bugun o'zini "olim" hisoblab salaflar yo'lini haqoratlayotganlarning asl maqsadi fitna va adovat urug'ini paydo qilish. Bu urug' o'z vaqtida quritilmasa, musulmonlar orasida turli qarama-qarshiliklar kelib chiqadi. Bu holatni oldini olishda faqat to'g'ri e'tiqod yordam bera oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Akmaluddin Muhammad ibn Muhammad Bobartiy. Sharh vasiyya al-imom Abu Hanifa. – Urdun: Dor al-Fath, 2009. –B.87.
2. Yahyo ibn Sharaf Navaviy. Sharh Sahih Muslim. –J:5. –Qohira: Muassisat Qurtuba, 1994.– B.33.
3. Shayx Muahmmad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. –J:6. –Toshkent: Hilol Nashr,2008.–B.213.
4. Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad an-Nasafiy. Tafsir an-Nasafiy. –J:3.
5. –Bayrut: Dor al-Kalim at-Toyyib,1998.–B.514.

INNOVATIVE  
ACADEMY